




1. Topishmoqning javobini toping.

Topishmoqni top, o'ртоq!

Joylagin qalam, chizg'ich,
Kitob, daftar, o'chirg'ich.
Bag'ringa sig'ar bari,
Ketamiz maktab sari.
Lek ko'tarib olasan,
Yo'qsa, mensiz qolasan.
Men senga yaxshi hamroh,
Nomimni top-chi, o'ртоq.



2. Rebusni yeching.





Salom, maktab!

Arofatbonu Mullajonova

Bugun bilimlar kuni,
Turibman quchog'ingda.
Juda sog'indim seni,
Sendan ayro chog'imda.

Yangi orzu, yangi kuch,
Yangicha har bir qadam.
Bilim "qushi", qani, uch,
Seniki butun olam.

Hamma o'quvchilar jam,
Do'stlar diydori shirin.
Yechgaymiz bo'lsak birdam,
Barcha tilsimlar sirin.



Salom, maktab, oltin kuz,
Tillarang daraxt bargi.
Senga talpinar hanuz,
Minglab o'quvchi qalbi.

Oldinda yangi marra,
Yo'qdir hech qanday kam-ko'st.
Yana men ikki karra
Kitob bilan bo'ldim do'st.

Salom, maktab, sen uchqun,
Zulmat ichra ziyosan.
Har bir o'quvchi uchun,
Kelajakli dunyosan!





1. She'r nima haqida?
2. Siz yozgi ta'tilda nimalar bilan mashg'ul bo'ldingiz?
3. Yangi o'quv yili uchun rejalaringiz qanday? O'rtoqlaringiz bilan suhbatlashing.



Tez ayting.

Lak-lak yurguncha laylak,
To'qidi yangi ertak.



She'rni yod oling.



“Aziz ustozim” (hikoya)

1. Sentabr oyida ilk bor maktabga qadam qo'yganingizni eslaysizmi?
2. Birinchi marta 5 baho olganingizdagi taassurotingizni eslay olasizmi? Bu bahoni kimlarga ko'rsatgansiz?
3. Bugungi kamolotingizda harf tanitgan ustozingizning o'rni beqiyos. Birinchi ustozingiz uchun maktub yozing. Barcha dil so'zlaringiz, shirin xotiralaringizni qog'ozga tushirishga harakat qiling.

